

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA XOTIN-QIZLAR UCHUN YARATILAYOTGAN IMTIYOZLAR

Maxmudova Nargiza Soat qizi

Alfiqanus Universiteti

Filologiya fakulteti ingliz filologiyasi yo'nalishi talabasi

nanizng@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mehnat munosabatlarida xotin-qizlarga taqdim etilayotgan imtiyozlar va ularning huquqiy tahlili muhokama qilinadi. Mamlakatda gender tengligini ta'minlash va xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ayollarning mehnat bozoridagi o'rnini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari asosida xotin-qizlar uchun mehnat huquqlarini kafolatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy yordamlarni taqdim etish bo'yicha ko'plab amaliy choralar ko'rilgan. Shuningdek, maqolada xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan tashabbuslarning samaradorligi ko'rsatilgan. Maqola xotin-qizlar uchun yaratilgan imtiyozlar va ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashda O'zbekistonning erishgan yutuqlarini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: Gender tenglik, mehnat ta'tili, bola parvarishlash ta'tili, "Ayollar daftari", "Ayollar, biznes va qonun".

Abstract: This article examines the privileges granted to women in labor relations in the Republic of Uzbekistan and provides their legal analysis. The paper analyzes reforms aimed at ensuring gender equality and protecting women's labor rights, particularly measures directed at strengthening women's position in the labor market. Based on the decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan, numerous practical steps have been taken to guarantee women's labor rights, promote entrepreneurship, and provide social assistance. The article also highlights the effectiveness of initiatives aimed at ensuring women's employment and protecting their labor rights. It emphasizes Uzbekistan's achievements in consolidating women's role in society through the creation of such privileges.

Keywords: gender equality, labor leave, childcare leave, "Women's Notebook", "Women, Business and the Law".

Абстрактный: В данной статье рассматриваются предоставляемые женщинам в Республике Узбекистан трудовые льготы и проводится их правовой анализ. Анализируются реформы, направленные на обеспечение гендерного равенства и защиту трудовых прав женщин, в частности меры, направленные на укрепление роли женщин на рынке труда. На основе указов и постановлений Президента Республики Узбекистан показаны практические шаги по обеспечению трудовых гарантий для женщин, развитию предпринимательства и предоставлению

социальной помощи. В статье также освещается эффективность инициатив, направленных на обеспечение занятости женщин и защиту их трудовых прав. Подчеркиваются достижения Узбекистана в укреплении роли женщин в обществе посредством предоставляемых им льгот.

Ключевые слова: гендерное равенство, трудовой отпуск, отпуск по уходу за ребенком, «Женская тетрадь», «Женщины, бизнес и закон».

KIRISH: Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga soʻzsiz rioya etilishini taʼminlash, mehnat huquqini kafolatlash va ayollar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash maqsadida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasining vazifalari qayta koʻrib chiqilib, tuman (shahar) xotin-qizlar qoʻmitalari tuzilmasida xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash boʻyicha mutaxassis lavozimi joriy etildi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va uning hududiy boʻlinmalari, Xotin-qizlarni va oilani qoʻllab-quvvatlash davlat maqsadli jamgʻarmasi tashkil etildi.

Shu bilan birga, xotin-qizlarning huquqlarini kafolatlash, tadbirkorlik sohasida samarali faoliyat yuritish mexanizmlarini yaratishga toʻsqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjud.

Jumladan, uzoq muddat bola parvarishlash bilan band boʻlgan ayollarni mehnat bozorida talab yuqori boʻlgan kasblar boʻyicha qayta tayyorlash borasidagi ishlar yetarlicha tashkil etilmagan.

Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qoʻllab-quvvatlash, mehnat faoliyatini ragʻbatlantirish va odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-martda PQ-4235-sonli "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi qarori ishlab chiqildi. Unda quyidagilar belgilab qoʻyildi[1]:

- ayollar mehnatini muayyan soha yoki kasblarda qoʻllash boʻyicha taqiqlarni bekor qilish;
- tavsiyaviy xarakterdagi ayollar sogʻligʻiga salbiy taʼsir etishi mumkin boʻlgan soha yoki kasblar roʻyxati tasdiqlash;
- bola parvarishlash taʼtilining kamida uch oyi ota tomonidan foydalanilgan taqdirda, ota yoki onadan biriga Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 234-moddasi tartibida qoʻshimcha bir oy nafaqa toʻlanadigan bola parvarishlash taʼtili berish;
- ikki yoshga toʻlmagan farzandini tarbiyalovchi ota-onalarning biriga ularning ish paytidagi dam olish va ovqatlanish, bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar hisobidan ish beruvchi bilan kelishgan holda kun davomida foydalaniladigan tanaffus vaqtini belgilash huquqini berish;
- ayollarning pensiya yoshiga toʻlganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayyan

muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to'lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishni taqiqlash;

- erkak va ayollar huquqlari tengligining buzilishi bilan bog'liq ishlarning sudlarda ko'rib chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning xohishiga ko'ra davlat hisobidan qoplash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi ayollarga beriladigan mehnat munosabatlariga oid imtiyozlar qonun hujjatlari bilan tartibga solingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida uch yoshga to'lmagan bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollarga ish vaqtining haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilab qo'yilgan[2]. Homilador ayollarni va o'n to'rt yoshga to'lmagan bolasi (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi) bor ayollarni ularning roziligisiz tungi ishlarga, ish vaqtdan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yo'l qo'yilmasligi ham alohida keltirib o'tilgan [3]. Bundan tashqari, ayollarga yillik ta'tillarni berish navbatini belgilashda ham alohida imtiyozlar mavjud bo'lib ular quyidagilar:

- Homilador ayollarga va bola tuqqan ayollarga yillik mehnat ta'tili, ularning xohishiga ko'ra, tegishincha homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin beriladi (MK-400-modda)

- 14 yoshga to'lmagan bitta va undan ortiq bolani (16 yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolani) tarbiyalayotgan yolg'iz ota, yolg'iz onaga (beva erkaklar, beva ayollar, nikohdan ajrashganlar, yolg'iz onalarga) va muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning xotinlariga yillik ta'tillar, ularning xohishiga ko'ra yoz vaqtida yoki ular uchun qulay bo'lgan boshqa vaqtda berish.

- O'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolaning yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning ota-onasidan biriga (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxsga) har yili davomiyligi kamida to'rt kalendar kun bo'lgan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til beriladi. (MK -401-modda)

NATIJALAR

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar ma'lum qilingan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[4] PQ-122-son qaroriga muvofiq, 2024-2025-yillarda tadbirkorlik faoliyati turini kengaytirish istagini bildirgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi hamda ijroga qaratildi.

Dastur asosida 889 567 nafar xotin-qizlar bandligini ta'minlashga ko'maklashildi. Bunda:

- 284 041 nafar xotin-qizlar mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qitildi, xususan, 154 972 nafari mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga, 129 069 nafari tadbirkorlik ko'nikmalari va moliyaviy savodxonlikka o'qitildi.

- 257 171 nafari ishga joylashtirildi, 102 544 nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi.

Besh yil mehnat stajiga ega, oliy ma'lumoti yo'q 4 587 nafar xotin-qizlarga tavsiyanomalar berilib, ulardan 398 nafari davlat oliy ta'lim muassasalariga to'lov kontrakt asosida o'qishga qabul qilindi.

Imkoniyat va imtiyozlar natijasida oliy ta'limdagi talabalar orasida xotin-qizlarning ulushi 52,2 foizga yetdi.

Kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan hamkorlikda "Ayollar daftari"ga kiritilgan 1 mln. 265 nafar ehtiyojmand xotin-qizlarning 995 239 nafariga tegishli yordamlar ko'rsatildi

O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash hamda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, umuman, inson qadrini ulug'lash borasida olib borilayotgan islohotlar xalqaro darajada munosib e'tirof etilmoqda.

Jahon banki tomonidan "Ayollar, biznes va qonun" indeksi bo'yicha joriy yilda e'lon qilingan hisobotda olib borilgan keng islohotlar natijasida 2024-yilda O'zbekistonning ushbu reytingdagi o'rni yanada yaxshilandi. Xususan, mamlakatimizda mehnat munosabatlari va oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash sohasida amalga oshirilgan islohotlar muvaffaqiyatli deb topilib, O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etilgan.

MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[5] 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni hamda "Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[6] 2022-yil 21-sentabrdagi PQ-376-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish, ularni kasbga va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatish orqali bandligini ta'minlash hamda salomatligini mustahkamlashishlarini mahallalarda tashkil etish borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Bunga ko'ra, markazlar binolari mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan mahallalardagi xotin-qizlar faollarining tavsiyasiga asosan davlat mulkini ijaraga berish tartibiga muvofiq tikuvchilik, qandolatchilik, fitness, sheyping, xotin-qizlarni kasbga o'qitish faoliyatini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga 5 yil muddatga ijaraga beriladi, markazlarda bitta loyiha doirasida 20 nafargacha xotin-qizlarning doimiy bandligini ta'minlash maqsadida har bir nafar bandligi ta'minlanadigan ishsiz xotin-qiz uchun Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan tadbirkorlik subyektlariga belgilangan tartibda 3 million so'mdan oshmagan miqdorda davlat granti ajratiladi. Ishsiz, ayniqsa, qishloq joylarda bola tarbiyasi bilan uyda o'tirib qolgan ehtiyojmand ayollar, shuningdek, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bandligini ta'minlash maqsadida mahallalarda tikuvchilik, qandolatchilik, pazandachilik kabi yo'nalishlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatini yo'lga qo'yish, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish, bandligini ta'minlash, kasb-hunar egallashlari uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar va imtiyozlar haqida aholini xabardor qilish maqsadida zarur ma'lumot va tavsiyalarni berib borish, xotin-qizlarning salomatligini mustahkamlash maqsadida fitness, sheyping kabi sog'lomlashtirishga

mo'ljallangan xizmat ko'rsatish faoliyatini yo'lga qo'yish, muqaddam jinoiy javobgarlikka tortolgan, profilaktik ro'yxatga olingan, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytib kelgan xotin-qizlarni doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va o'z faoliyatini yo'lga qo'yish hamda rivojlantirishda, bandligini ta'minlashda, kasb-hunar egallashda ko'maklashish va shu kabi boshqa chora-tadbirlar markazlarning asosiy vazifalari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.03.2019 yildagi PQ-4235-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 30.04.2023. -183-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 30.04.2023. -396-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.03.2024 yildagi PQ-122-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2022 yildagi PF-87-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.09.2022 yildagi PQ-376-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori.